

O'ZBEK VA INGLIZ BADIY MATNLARIDA QIMMATBAHO TOSH VA MA'DAN NOMLARINING QO'LLANILISHIDAGI SHAKL VA MAZMUN BIRLIKLARI

Ziyodulloyeva Sabrina Narzullo qizi

TerDu Xorijiy filologiya fakulteti 4-kurs talabasi

sabrinaziyodullayeva153@gmail.com

Ilmiy rahbar: Shahnoza Qayumova Qobiljonovna

TerDu Xorijiy filologiya fakulteti katta o'qtuvchisi,

Falsafa doktori(PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek badiiy matnlarida qimmatbaho tosh va ma'dan nomlarining shakl va mazmun jihatidan qo'llanish birliklari va ularning uslubiy xususiyatlari tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari, badiiy matn, shakl va mazmun, uslubiy xususiyatlar.

ABSTRACT

In this article, the units of use of the names of precious stones and minerals in terms of form and content and their stylistic features are analyzed in English and Uzbek literary texts.

Key words: precious stone and mineral names, artistic text, form and content, stylistic features.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются единицы употребления названий драгоценных камней и минералов по форме и содержанию, их стилистические особенности в английских и узбекских художественных текстах.



Ключевые слова: названия драгоценных камней и минералов, художественный текст, форма и содержание, стилистические особенности.

Har bir asar makon va zamon bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Badiiy matnlarda ishtirok etadigan minerologik birliklar, ya'ni qimmatbaho tosh va ma'dan nomlarining qo'llanishida shakl va mazmun birliklarini umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini o'rganish muhim tamoyildir.

Olmos dunyodagi eng qimmatbaho toshlardan biri hisoblanadi. Olmoslar rangsizlikka qanchalik yaqinlashganiga qarab baholanadi, aslida ular qanchalik kam rangga ega bo'lsa, ularning qiymati shunchalik yuqori bo'ladi[1]. Ma'lumki, olmos tabiatan shaffof ko'rinishda ko'p uchrasada ammo xalqimiz olmosni ko'proq oq rang bilan bog'lashadi. Bolalarning sevimli shoiri Anvar Obidjonning asarlari xazinasidan o'rin olgan "Qorqiz" she'rida **olmos** mineral birligidan o'rinli foydalangan:

Yo'laklarim - olmos qor,

Ko'ylaklarim — olmos qor,

Sochlarim ham olmos qor,

Tojlarim ham olmos qor.[2]

Shoirning yuqoridagi she'rida yo'laklar, ko'ylaklar, soch va tojning oppoq qorga burkanganligi ifodalangan va ushbu oqlik atrofga jilo taratayotgan olmosga qiyoslangan.

Kuyla sozim, yuragim, she'rim,

Baxt kitobin qilgin tarona.

Zamirida huquq, erk, nomus,

Har bir satri **olmos**, durdona.

Shoir G'ayraty ijodiga mansub ushbu bandda muallif o'z ijodining diliga qanchalar yaqinligini ko'rsatib turibdi, ya'ni shoirning o'z she'riga "sozim", "yuragim" deb murojaat qilishi ijodkor uchun o'zi yaratgan satrlar naqadar qadrlil va qimmatli ekanligini anglatadi. Va bu haqiqiy ijodkor uchun bir tabiiy holatdek, chunki chinakam shoir shunchaki yozmaydi. Halima Xudoyberdiyeva so'zi bilan aytganda: "shunchaki yozmoqlik shoirga o'lim". Tabiatda mavjud bo'lgan nodir toshlar ichidagi eng qimmatbahosi olmos hisoblanadi. Shu boisdan shoir uchun she'rning har bir satri bir "olmos"dir. Qalbining bir parchasi aks etgan, "baxt kitobini tarona qiluvchi" satrlar o'z qimmatini jihatdan hech bir olmosdan qolishmaydi.[3]



Yoqut ham birinchi raqamli qimmatbaho toshlar turkumiga mansub. Toshga bu nom uning muhtasham va maftunkor qizil rangi uchun qo'yilgan. Tabiatda shuningdek yoqutlarni och pushtidan to'q qizilgacha bo'lgan ranglari uchraydi. Odatda, badiiy matnlarda yorning labi yoqutga qiyos qilinadi. Bu o'rinda labning qizilligigina emas, balki ayolning maftunkorligi asosiy unsurlardan biri bo'lgani uchun ham yoqut sifati keltiriladi. Chunki, yoqut qadimdan go'zallik, maftunkorlik, muhabbat toshi hisoblangan. Ingliz adabiyotining mashhur vakili, buyuk yozuvchi Shekspir ham ingliz adabiyotida yorqin qizil rangni ifodalashda ko'p qo'llaniladigan "ruby" ya'ni "yoqut" qimmatbaho tosh nomiga murojaat qiladi.

"And keep the natural **ruby of your cheeks**,

When mine is blanch'd with fear"[4]

Yuqoridagi misralarda Shekspir yanoqlar qizarishini yoqut(ruby) ga qiyoslagan.

And if I was looking for clemency

I'd wake up from this fantasy

As her **ruby red lips** vanish into the night

Blowing a kiss in her midnight flight[5]

Shoir Alfred Ramosning quyida keltirilgan "Ruby red lips" she'ridan berilgan parchada lablar yoqutga qiyoslangan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz badiiy matnlarida qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari shakl va mazmun birliklari jihatidan o'zining rangi, shakli, kimyoviy xossasi va vazifasiga ko'ra qahramonning tashqi ko'rinishi, husnu jamoli, go'zalligi, jamiyatda tutgan mavqei, aql zakovati va shu kabi boshqa qirralarni ifodalash kabi uslubiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Olmos rangi tahlili <https://www.eurolab.net/uz/testler/urun-testleri/pirlanta-renk-analizi/>[1]
2. Qorqiz <https://erkatoy.uz/uzb/kutubxona/sherlar/4023-qorqiz>[2]
3. O'ZBEK VA INGLIZ BADIY MATNLARIDA QIMMATBAHO TOSH VA MA'DAN NOMLARINING AYRIM USLUBIY XUSUSIYATLARI | Innovative Development in Educational Activities <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1385>[3]

-
4. Ruby red lips poem by Alfred Ramos
[https://images.app.goo.gl/tW9fbXBJ5mm3ujjd7\[5\]](https://images.app.goo.gl/tW9fbXBJ5mm3ujjd7[5])
 5. W.Shakespeare Macbeth Act 3, Scene 4,113-115
[https://myshakespeare.com/macbeth/act-3-scene-4\[4\]](https://myshakespeare.com/macbeth/act-3-scene-4[4])

